

**MEDICINE
PROBLEMS**

.uz

ISSN 3030-3133

**TIBBIYOT FANLARINING
DOLZARB MASALALARI**

TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ МЕДИЦИНСКИХ НАУК



№ 1 (2)

2024



САЙТ: <https://medicineproblems.uz>
ISSN: 3030-3133

MEDICINEPROBLEMS.UZ

**TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

№ 1 (2)-2024

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ МЕДИЦИНСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

BOSH MUHARRIR:

ISANOVA SHOIRA TULQINOVNA- Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat tibbiyot universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

TIBBIYOT FANLARI

Safarov Zafar Fayzullayevich –tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xakimov Murod Shavkatovich –tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Mavlanov Alimbay – tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ergashev Nasriddin Shamsiddinovich - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent pediatriya instituti;

Abdullayeva Nargiza Nurmatovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Djurabekova Aziza Taxirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Xaydarova Dildora Kadirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ruziboyev Sanjar Abdusalomovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Sattarov Oybek Toxirovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Niyozov Shuxrat Tashmirovich - tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Tavasharov Bahodir Nazarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Xalmetova Feruza Iskandarovna – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

G'aybiyev Akmaljon Axmadjonovich - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Qo'ziyev Otabek Juraqulovich – tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Ergasheva Munisa Yakubovna - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Ollanova Shaxnoza Sirlibayevna – tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Safarov Zafar Fayzullayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xayitov Ilxom Bahodirovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Alimov Suxrob Usmonovich- tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Fozilov Uktam Abdurazzokovich - tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Raximov Oybek Umarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya instituti;

Sattarov Inayat Saparbayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Abidov O'tkir O'ktamovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Amonova Zaxro Qaxramon qizi - tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti.

FARMATSEVIKA FANLARI

Zulfikariyeva Dilnoza Alisherovna - farmatsevtika fanlari doktori (DSc), professor, Toshkent farmatsevtika instituti;

Toshpo'latova Azizaxon Dilshodovna -
farmatsevtika fanlari doktori (DSc),
professor, Toshkent farmatsevtika instituti;

Xusainova Rayxona Ashrafovna -
farmatsevtika fanlari doktori (DSc), dotsent,
Toshkent farmatsevtika instituti;

Maksudova Firuza Xurshidovna
farmatsevtika fanlari doktori (DSc), dotsent,
Toshkent farmatsevtika instituti;

Ziyamuxamedova Munojot Mirgiyasovna -
farmatsevtika fanlari doktori, Toshkent
farmatsevtika instituti, dotsent v.b.;

Rizayeva Nilufar Muxutdinovna –
farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent farmatsevtika instituti;

TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB

MASALALARI elektron jurnali 02.03.2023-
yilda 132099-sonli guvohnoma bilan
davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Telegram kanal:

https://t.me/Scienceproblemsteam_uz

МУНДАРИЖА

<i>Наврүзова Лола</i> СОВРЕМЕННЫЙ ВЗГЛЯД К СТРУКТУРНЫМ ИЗМЕНЕНИЯМ ЗУБОВ ПРИ ГИПЕРПАРАТИРЕОЗЕ	6-11
<i>Отонова Сарвиноз, Исмаилова Муножат</i> QALQONSIMON BEZ O'CHOQLI KASALLIKLARIDA MULTIPARAMETRIK ULTRATOVUSH TEKSHIRUVINING ANAMIYATI	12-17
<i>Абзалова Мухсина, Якубова Мархамат, Шокиров Шохнур</i> СОН И ИНСУЛЬТ. ОСОБЕННОСТИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ТЕЧЕНИЯ	18-26
<i>Пайзиева Дилрух, Рахимзода Тохир</i> БУЙРАК ТРАНСПЛАНТАТИНИНГ ВЕНАСИ СТЕНОЗИНИ ВА АРТЕРИЯСИ ПСЕВДОАНЕВРИЗМАСИНИ ЭНДОВАСКУЛЬЯР УСУЛДА БАРТАРАФ ЭТИШ (КЛИНИК ҲОЛАТ)	27-35
<i>Ramziddinov Jasur, Jangavarov Axmadjon, Dubrovchenko Alina, Azizova Zuxra</i> QO'ZIQORINLARNING BIOLOGIK FAOL INGREDIENTLARI VA ULARNING IMMUNOMODULYATORI VA IMMUNOSTIMULYATOR XUSUSIYATLARI (ADABIYOTLAR SHARHI)	36-43
<i>Джуракулов Бунёд, Хамраев Акбар</i> ПОСТНАТАЛЬНЫЙ ОНТОГЕНЕЗ ТОНКОЙ КИШКИ У МЛЕКОПИТАЮЩИХ	44-57
<i>Хоҗиёев Мурадҗон</i> BOLALAR TUBERKULOZINING DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH MONITORINGI	58-63
<i>Abdumanarova Rano</i> BOLALAR TUBERKULOZINI DAVOLASH XUSUSIYATLARI	64-69
<i>Samidjanova Shaxzoda, Urinov Oybek, Abidova Dilorom</i> JARROHLIK VA ENDOVASKULYAR DAVOLASH USLUBLARIGA LOZIM TOPILGAN YURAK-QON TOMIR KOMORBIDLIGI BO`LGAN BEMORLARDA O`ZIGA XOS KLINIK XUSUSIYATLAR.....	70-78
<i>Утамуратова Низора, Исанова Шоира</i> САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКОЕ УЛУЧШЕНИЕ ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ	79-84

Omonova Sarvinoz Mo'minjon qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Tibbiy radiologiya kafedrası magistri
e-mail: nuraliyegasarvinoz97@gmail.com

Ismailova Munajat Hayatovna
Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Tibbiy radiologiya kafedrası mudiri
e-mail: munajat.rad@gmail.com

QALQONSIMON BEZ O'CHOQLI KASALLIKLARIDA MULTIPARAMETRIK ULTRATOVUSH TEKSHIRUVINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola ultratovush tekshiruvining yuqori informatsion usullarini joriy etish orqali qalqonsimon bez kasalliklarini erta tashxislash sifatini oshirishga qaratilgan. Yagona diagnostika taktikasining yo'qligi va skrining dasturlarining nomukammalligi qalqonsimon bez saratoni bilan kasallanishning barqaror o'sishi muammosini onkologiya olamidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantiradi. Tashxislash diagnostikasi ultratovush, radiologik, sitologik va morfologik tadqiqot usullariga asoslangan. Biroq, invaziv diagnostika usullarining natijalari birlamchi ultratovush tekshiruvlari aloqasining nomukammalligi faktini tasdiqlaydi, bu tugunlarning malignligini kech aniqlashiga olib keladi.

Kalit so'zlar: Qalqonsimon bez patologiyalari, multiparametrik ultratovush, Ti-RADS, sonoelastografiya, ultratovush.

Omonova Sarvinoz Muminjon kizi
Tashkent Medical Academy
Master of Medical Radiology

Ismailova Munajat Khayatovna
PhD, Associate Professor
Tashkent Medical Academy
Head of the Department of Medical Radiology

THE IMPORTANCE OF MULTIPARAMETRIC ULTRASOUND IN FOCAL DISEASES OF THE THYROID GLAND

Abstract: This article is aimed at improving the quality of early diagnosis of thyroid diseases through the introduction of highly informative ultrasound methods. The lack of a unified diagnostic tactic and the imperfection of screening programs make the problem of a steady increase in the incidence of thyroid cancer one of the most acute in the world of oncology. The diagnosis is based on the methods of ultrasound, radiological, cytological and morphological examination. However, the results of invasive diagnostic methods confirm the fact that the connection of primary ultrasound studies is imperfect, which leads to late detection of malignancy of the nodes.

Keywords: Thyroid pathology, multiparametric ultrasound, Ti-RADS, sonoelastography, ultrasound

Омонова Сарвиноз Муминджон кизи
Ташкентская медицинская академия
Магистр кафедры медицинской радиологии

Исмаилова Муножат Хаятовна
Кандидат медицинских наук, доцент
Ташкентская Медицинская Академия
Заведующая кафедрой медицинской радиологии

ЗНАЧЕНИЕ МУЛЬТИПАРАМЕТРИЧЕСКОГО УЛЬТРАЗВУКОВОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПРИ ОЧАГОВЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ

Аннотация. Данная статья направлена на повышение качества ранней диагностики заболеваний щитовидной железы за счет внедрения высокоинформативных методов ультразвукового исследования. Отсутствие единой диагностической тактики и несовершенство программ скрининга делают проблему устойчивого роста заболеваемости раком щитовидной железы одной из самых острых в мире онкологии. Постановка диагноза основана на методах ультразвукового, радиологического, цитологического и морфологического исследования. Однако результаты инвазивных методов диагностики подтверждают факт несовершенства связи первичных ультразвуковых исследований, что приводит к позднему выявлению злокачественности узлов.

Ключевые слова: Патология щитовидной железы, мультипараметрическое УЗИ, Ti-RADS, соноэластография, УЗИ.

DOI: <https://doi.org/10.47390/3030-3133V2I1Y2024N02>

Kirish: Endokrin kasalliklar tarqalishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qalqonsimon bez patologiyalari bilan kasallanish qandli diabetdan keyingi yuqori o'rinlarni egallaydi [1,3]. Tugunli kasalliklar tarqalishining ortishi qalqonsimon bezning patologiyasiga mutaxassislar e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 30 yil ichida qalqonsimon bez tugunlari bilan kasallanish 4-9% dan 5-22% gacha o'sdi va so'nggi 10 yil ichida qalqonsimon bez saratoni 2 barobar ko'paydi va saraton kasalliklarining 1% o'lim bilan yakunlanmoqda [2]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 200 milliondan ortiq odam ushbu patologiyadan aziyat chekmoqda [6]. Qalqonsimon bez saratoni endokrin tizimning malign neoplazmalari orasida asosiy o'rinni egallaydi. Kasallik darajasi barqaror o'sish tendentsiyasini saqlab qolmoqda. Barcha malign neoplazmalar tarkibida qalqonsimon bez saratoni taxminan 0,5-3% ni egallaydi [4, 5]. Xavf omillari va tugun shakllanishlarning malignizatsiya tendentsiyasi kichik ahamiyatga ega emas. Biroq, bugungi kunda qalqonsimon bezdagi operatsiyadan keyingi va takroriy jarayonlarning ultratovush diagnostikasini sifat va miqdoriy jihatdan yaxshilash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Radiatsiya va kimyoterapevtik aralashuvlarni va ularning mumkin bo'lgan asoratlarini multiparametrik (murakkab) baholash yetarli darajada o'rganilmagan. Yuqoridagilarga muvofiq, ushbu tadqiqot ishi ultratovush tekshiruvining yuqori informatsion usullarini joriy etish orqali qalqonsimon bez kasalliklarini erta tashxislash sifatini oshirishga bag'ishlangan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi qalqonsimon bezning o'choqli kasalliklari diagnostikasida multiparametrik ultratovush tekshiruvini ahamiyatini baholash, olingan natijalarni tahlil qilishdan iborat.

Tekshiruv materiallari va usullari. Tadqiqot ishi doirasida 2016 – 2022 yillarda TTA Ko'p tarmoqli klinikasiga yotqizilgan va qalqonsimon bez kasalliklari bilan kasallangan 120 nafar bemor bo'lib, ular ambulator tekshiruvdan o'tkazildi. Nazorat guruhi klinik jihatdan sog'lom 30 kishidan iborat edi. Bemorlar yosh chegarasi 18-60; o'rtacha yosh 51.4±1.1 ayollar-77 (64.1%), erkaklar-43 (35.8%).

Asosiy (N1) guruhdagi bemorlar orasida kichik guruhi ajratilgan (n1=30). Kichik guruhdagi barcha 30 ta bemorlarda keyinchalik sitologik va gistologik qalqonsimon bez saratoni tasdiqlandi. Nazorat guruhi (N2) qalqonsimon bez o'zgarmagan bemorlarni tashkil etdi (n2=30). Birinchi bosqichda barcha N1 ba N2 bemorlar multiparametrik UTT Sonoscape S40 Exp apparatida chiziqli chastotasi 7-12 MHz bo'lgan datchikda B-rejimda qalqonsimon bez standart tadqiqot protokoli bo'yicha tekshirildi. Shuningdek, bu bosqichda N1 va nazorat N2 guruhlarining barcha bemorlariga ultratovush apparatida multiparametrik ultratovush-elastografiya tekshiruvu o'tkazildi

Bizning tadqiqotimiz quyidagilarga asoslangan edi exostruktura, exogenlik, shakl, konturlar, bilan bog'liq ultratovush belgilarini aniqlash, sonoelastografiyasini o'tkazishda tugunning qattiqligining o'zgarishi. Har bir ultratovush belgisi ballarda baholandi, ballar yig'indisi bo'yicha Ti-RADS toifalari aniqlandi.(1-jadval)

Ikkinchi bosqichda asosiy guruh bemorlar UTT protokollari natijalari tahlil qilindi Ti-RADS toifalari bo'yicha taqsimlandi.

ACR Ti-RADS tavsiyalarini hisobga olgan holda ballar bo'yicha qalqonsimon bez tugunlar belgilarining ultratovush xususiyatlari. Ikkinchi bosqichda, ultratovush protokollari natijalari Ti-RADS toifalari bo'yicha asosiy guruh bemorlarini taqsimlash bilan tahlil qilindi.

Ti-RADS shkalasi bo'yicha qalqonsimon bez tugunlarining ultratovush tasnifi Bi-RADS (mammografiya natijalarini standartlashgan shkalada baholash) mammografik rentgen shkalasi kontseptsiyasiga asoslanadi [9].

Tahlil 2017 yil mart oyida Ti-RADS qo'mitasi tomonidan Amerika radiologiya kolleji (ACR) tavsiyalarini hisobga olgan holda o'tkazildi [10].

ACR Ti-RADS tavsiyalarini hisobga olgan holda ballar bo'yicha qalqonsimon bez tugunlar belgilarining ultratovush xususiyatlari jadvalda keltirilgan (1-jadval).

Jadval 1

Qalqonsimon bez o'zgarishlari UTT belgilarini ball da baholash

UTT belgi		BALL	UTT belgi		BALL
Forma	Balandligidan kengroq	0	Kontur	Tekis	0
	Kengligidan balandroq	3		Aniq emas	0
				Notekis yoki bo'linmas	2
				Ekstratiroidal tarqalish	3
Exogenlik	Anexogen	0	Exostruktura	Kistoz yoki butunlay kistoz	0
	Gipo- yoki izoexogen	1		G'ovaksimon	0
	gipoexogen	2		Aralash yoki solidno-kistoz	1
	Ifodalangan gipoexogen	3		Yumshoq to'qima komponenti	2

UTT belgi		BALL	UTT belgi		BALL
Qo'shim-chalar	Yo'q yoki "kometa dumi" belgisi	0	Sonoelastografiyada tugun zichligi	norma	0
	makrokalsinat	1		yumshoq	1
	Periferik kalsifikatsiya	2		qattiq	2
	mikrokalsinat	3			

Ti-RADS 1 (0 ball)-QB yaxshi sifatli o'zgarishi

Ti-RADS 2 (2ball)- qalqonsimon bezdagi yaxshi sifatli o'zgarishlar ehtimoli (malignizatsiya ehtimoli 0%)

Ti-RADS 3 (3 ball)- qalqonsimon bezdagi yaxshi sifatli o'zgarishlar ehtimoli (malignizatsiya ehtimoli 0,25%)

Ti-RADS 4a (4-5 ball)- qalqonsimon bezdagi xavfli o'zgarishlarga shubhali (malignizatsiya xavfi past-6%)


Ti-RADS 4b (5-6 ball)- qalqonsimon bezdagi xavfli o'zgarishlarga shubhali (malignizatsiya xavfi yuqori-69%)

Ti-RADS 5 (7 va undan yuqori ball)- qalqonsimon bezning xavfli o'zgarishi ehtimoli ko'proq (karsinoma uchun xarakterli-100%)

Natijalar standart statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Farqlar $p < 0.05$ da statistik ahamiyatga ega deb hisoblandi.


Tadqiqot natijalari. Multiparametrik ultratovush protokollarini tahlil qilishda 120 ta asosiy guruh (N1) bemorlari TI-RADS toifalariga bo'lingan. Toifaga Ti-RADS 1 nazorat guruhidagi bemorlarga tegishli (N2=30) o'zgarmagan qalqonsimon bez bilan, tugunlarsiz, normal exogenlikda. Asosiy guruhdagilar orasida N1 Ti-RADS 2-56ta (46.7% $p < 0,05$), Ti-RADS 3-21ta (17.5% $p < 0,05$), Ti-RADS 4a-27 ta (22.5 % $p < 0,05$), Ti-RADS 4b-10 ta (8.33% $p < 0,05$), Ti-RADS 5-6 ta (5% $p < 0,05$) (1-diagramma).

Diagramma 1




Asosiy guruhdagi N1 bemorlar orasagi ajratigan kichik guruhdagi (n1=30) barcha bemorlarda sitologik va gistologik qalqonsimon bez saratoni tasdiqlandi. Ular orasida medulyar rak - 1 ta, follikulyar rak-11 ta, anaplastic-0, papilyar-18 ta Ti-RADS 3, 4a, 4b va 5 lar orasida taqsimlanishi 2-diagrammada ifodalangan.

1-rasm. TI-RADS 4. Follikulyar neoplaziya:



a - B-rejim.Oval shakldagi tugun, tekis, aniq konturli, izoexogen, gipoexogen qo'shimchalar bilan, atrofida ingichka xalo; b-kompression elastografiya rejimi. Tugunning yuqori qattiqligi aniqlanadi.

Diagramma 2



2-diagramma

Multiparametrik ultratovushning sezgirliigi-96%, spetsifiklik-91%, diagnostic aniqlik-91,5% ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi **xulosalarga** ega bo'lindi:

1. Qalqonsimon bez saratonining differentsial tashxisida Ti-RADS tasnifidan foydalanish sezgirlikni 96% , o'ziga xoslik 91%, diagnostik aniqligi 91,5%.

2. Ti-RADS shkalasi aniqlangan tugunlarni tasniflash tizimini joriy etish imkonini beradi. Ma'lumotlar terminologiyasi, buning asosida tugunli shakllanishlarning malignizatsiya ehtimolini baholash va ularning keying taktikasini aniqlash imkonini beradi.

3. Ko'p parametrli ultratovush biopsiyasi uchun ko'rsatkichlarni aniq belgilash imkonini beradi va shu bilan tiroid tugunlarining keraksiz biopsiyalari sonini kamaytiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Дедов И.И. Российские клинические рекомендации. // Эндокринология, — 2016. — 592 с.
2. Тимофеева Л,А Диагностическая тактика при узловых образованиях щитовидной железы
3. Тимофеева Л,А Комплексное ультразвуковое исследование и магнитно-резонансная томография в диагностике очаговой патологии щитовидной железы. Казанский мед.ж 2012 93(3).
4. Костромина Е. В. Критерии и возможности мультипара- метрического ультразвукового исследования в диагностике очаговых образований щитовидной железы по категории ТНI-RADS: ультразвуковая компрессионная эластография, контрастно-усиленная ультразвуковая ангиография. / Е. В. Костромина, Д. А. Ракитина, А. В. Мищенко и др. // Лучевая диагностика и терапия. - 2017. - Т 8, № 3. С. 104.
5. Каприн А. Д. Злокачественные новообразования в России в 2017 году (заболеваемость и смертность) / А. Д. Каприн, В. В. Старинский, Г. В. Петрова. - Москва: МНИОИ им. П.А. Герцена, 2018. - 250 с.
6. Kwak J. Y. Image reporting and characterization system for ultrasound features of thyroid nodules: multicentric Korean retrospective study / J. Y. Kwak, I. Jung, J. H. Baek et al. // Korean J. Radiol. - 2013. - Vol. 14. - P. 110-117.
7. Garra B. S. Elastography: history, principles, and technique comparison. / B. S. Garra // Applied radiology Journals - 2011. - Vol. 40, № 4. - P. 680-697.
8. Dietrich C. F. Shear wave elastography with a new reliability indicator / C. F. Dietrich, Y. Dong // J. Ultrason. - 2016. - Vol. 16, № 66. P. 281-287.
9. Заболотская Н.В., Заболотский В.С. Новые технологии в ультразвуковой маммографии: Практическое руководство. — 2010. – 256 с.
10. Tessler F.N., Middleton W.D., Grant E.G., Hoang J.K. ACR Thyroid Imaging, Reporting and Data System (TI-RADS): White Paper of the ACR TI-RADS Committee. // Journal of the American College of Radiology. — 2017. — May. — №14(5). — P. 587–595.



САЙТ: <https://medicineproblems.uz>
ISSN: 3030-3133

MEDICINEPROBLEMS.UZ- TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB MASALALARI

№ 1 (2)-2024

TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES

**TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI** электрон журнали
02.03.2023 йилда 132099-сонли
гувоҳнома билан давлат рўйхатидан
ўтказилган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти.

ТАҲРИРИЯТ МАНЗИЛИ:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик
Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон
манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/Scienceproblemsteam_uz